

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI SO'ROQ GAPLARNING TARJIMA
JARAYONIDA SODIR BO'LADIGAN O'ZGARISHLARIDAGI
O'XSHASH VA FARQLI TOMONLARI.**

G.M.BEKBERGANOVA

*URGANCH SHAHAR 1-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM
MAKTABI INGLIZ TILI O'QITUVCHISI*

Annotatsiya

Maqolada ingliz tilidagi so'roq gaplar bilan o'zbek tilidagi so'roq gaplarning Grammatik o'xshash tomonlari va ularni o'zbek tiliga tarjima qilishdagi farqli tomonlari tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: so'roq gaplar, tasdiq so'roq gaplar, muqobil so'roq gaplar, maxsus so'roq gaplar, darak gaplar.

Annotation

The article analyzes the comparison and contrast between interrogatives in Uzbek and English languages in translation process.

Key words:interrogative questions, disjunctive, alternative, special questions, declarative sentence.

Аннотация

В статье анализируются грамматические сходства вопросительных предложений на английском и узбекском языках и их различие в переводе на узбекский язык.

Ключевые слова: вопросительные предложения, утвердительные предложения, альтернативные предложения, специальные вопросительные предложения, повествовательные предложения.

Tarjima jaroyonida ko'ndalang bo'ladigan eng muhim qiyinchiliklardan biri original asarning asosiy mazmunini tarjima qilinayotgan asarda mukammal,hamma uchun tushunarli tilda yoritib berishdir. Ayniqsa, detektiv asarlardagi so'roq gaplarning tarjimasida sezilarli xatolar va grammatik qoidalarga zid o'rinlar uchrab turadi. Grammatik asoslarga tayangan holda ana shunday hodisalar ushbu maqolada tahlil qilindi.

Ma'lumki, Ingliz tilida so'roq gaplar (interrogative sentence) asosan 4 xil bo'ladi. Bular: maxsus so'roq gaplar (special questions), umumiy so'roq gaplar (general questions), tasdiq so'roq gaplar (disjunctive questions) va muqobil so'roq

gaplar (alternative questions)¹. Maxsus so'roq gaplar (special questions) gapning biror bo'lagi bo'lib, Who, What, Whose, How, When, Where va boshqa so'roq so'zlar bilan boshlanadi.

Who brought you this book? What did you see there? How did he write the dictation? When did he come?

Umumiy so'roq gaplar gapning boshida, eganing oldiga yordamchi fe'l yoki modal fe'lni qo'yish bilan yasaladi. Uning asosiy formulasi mana bunday:

Yordamchi (modal) fe'l +ega +v?

Kesim tarkibida ikki yoki undan ziyod yordamchi fe'l bo'lsa, eganing oldiga faqat birinchi yordamchi fe'l qo'yiladi.

Darak gap	Umumiy so'roq gap
He has been working since morning?	Has he been working since morning?

Umumiy so'roq gaplarning bir turi tasdiq so'roq gaplardir. Tasdiq so'roq gaplarda bo'lishli yoki bo'lishsiz darak gapga qisqa umumiy so'roq gap qo'shiladi. Bu so'roq gap bosh gapdagi fe'lga mos yordamchi yoki modal fe'ldan va boshqa gapning egasiga mos bo'lgan kishilik olmoshidan iborat bo'ladi.

He hasn't returned from London yet, has he?	U hali londondan qaytib kelgan emas, shunday emasmi?
--	---

You speak French, don't you?	Siz fransuz tilida gapirasiz, shunday emasmi?
-------------------------------------	--

Tasdiq so'roq gaplar gapiruvchi o'zining aytgan fikriga tasdiq olishni istaganida ishlatiladi. Gapiruvchi bo'lishli tasdiq olishni istasa, so'roq gapdan oldingi darak gap bo'lishli shaklda so'roq gapdagi yordamchi yoki modal fe'l bo'lishsiz shaklda ishlatiladi. Agar gapiruvchi bo'lishsiz javob olishni istasa, so'roqdan oldingi darak gap bo'lishli bo'ladi va so'roq qismidagi yordamchi yoki modal fe'l bo'lishli shaklda bo'ladi.

Maxsus so'roq gaplar gapning biror bo'lagiga beriladi va who? Kim?, what? Nima? Which? Qaysi? When? Qachon? Where? Qayerda? Why nima uchun? How? Qanday? how much? Qancha? Kabi so'roq so'zlar yoki so'zlar guruhi bilan boshlanadi.

¹ M.G'apparov,R.Qosimova.Ingliz tili grammatikasi.Toshkent.Turon-Iqbol.2017.284-bet.

Maxsus so'roq olmoshlari+yordamchi fe'l+ega+asosiy fe'l+h.k.

Muqobil so'roq gaplar or bog'lovchisi bilan bog'langan ikkita umumiy so'roq gapdan iborat bo'ladi. Odatda ikkinchi so'roq gap to'liq bo'lmaydi:

Is he resting or (is he) working? U dam olyaptimi yoki ishlayaptimi?

Muqobil so'roq gaplarga to'liq javob beriladi:

Is he resting or working?	-he is resting.
----------------------------------	------------------------

Muqobil so'roq gap egaga berilgan bo'lsa, ikkinchi egadan oldin doim yordamchi fe'l yoki modal fe'l keladi. Bunday so'roq gaplarga har qanday egaga berilgan so'roq gaplarga o'xshab, qisqa javob beriladi:

Did you speak to them, or the manager?	-the manager did
Ular bilan siz gaplashdingizmi yoki menejer?	-menejer²

O'zbek tili grammatikasida ham so'roq gaplar ingliz tili grammatikasidagi so'roq gaplar (interrogative sentences) bilan o'xshashlilik va farqli tomonlari bor.

Har bir lug'aviy leksemalar turkumining o'z so'roq olmoshlari bo'ladi:

- 1) ot so'roq olmoshlari: *kim-*, *nima-*;
- 2) sifat so'roq olmoshlari: *qanday*, *qanaqa*, *qaysi*;
- 3) son so'roq olmoshlari: *necha*, *qancha*, *nechtadan*, *nechanchi*;
- 4) ravish so'roq olmoshlari: *qachon*, *nega*, *nimaga*, *nechuk*, *qanday qilib*, *qay tarzda*;
- 5) fe'l so'roq olmoshlari: *nima qildi*, *nima qiladi*, *nima qilayotir*.

1. Gumon olmoshlari:

1) so'roq olmoshi oldiga *alla-* affiksoidini qo'shib:

- a) ot so'roq olmoshiga: *allakim-*, *allanima-*,
- b) sifat so'roq olmoshiga: *allaqanday*, *allaqaysi*,
- d) son so'roq olmoshiga: *allaqancha*, *allanechanchi*,
- e) ravish so'roq olmoshiga: *allaqachon* kabi³;

o'zbek tili grammatikasida so'roq gaplar bir nechta turlarga bo'linadi va ular ingliz tili grammatikasidagi so'roq gaplardan tubdan farq qiladi. Chunki o'zbek tili grammatikasidagi so'roq gaplar turli shakllarda yasaladi. Masalan:

2) so'roq olmoshi oxiriga *-dir* gumon yuklama-affiksini qo'shib: a) ot

² M.G'aprov. R.Qosimova. Ingliz tili grammatikasi. Toshkent. Turon-Iqbol. 2017.

³ M.G'.R.Q. Ingliz tili grammatikasi. T. Turon-Iqbol. 2017.

- so‘roq olmoshiga: *kimdir, nimadir*,
 b) sifat so‘roq olmoshiga: *qandaydir, qaysidir*,
 d) son so‘roq olmoshiga: *qanchadir, nechanchidir*;
 e) ravish so‘roq olmoshiga:
qachondir, negadir, nimagadir kabi⁴.

-dir asli gumon yuklamasi bo‘lgani sababli ot so‘roq olmoshiga sonlovchi va turlovchi affiksdan keyin qo‘shiladi: *kimlargadir* kabi.

2. Belgilash olmoshlari so‘roq olmoshlaridan oldin *har* ta'kidlov affiksoidini keltirib hosil qilinadi:

- a) ot so‘roq olmoshi oldidan: *har kim–, har nima–*,
 b) sifat so‘roq olmoshi oldidan: *har qanday, har qaysi*,
 d) son so‘roq olmoshi oldidan: *har qancha*,
 e) ravish so‘roq olmoshi oldidan: *har qachon* kabi.

3. Bo‘lishsizlik olmoshlari so‘roq olmoshlari oldidan *hech* inkor affiksoidini keltirib hosil qilinadi:

- a) ot so‘roq olmoshi oldidan: *hech kim–, hech nima–*,
 b) sifat so‘roq olmoshi oldidan: *hech qanday, hech qaysi*,
 d) son so‘roq olmoshi oldidan: *hech qancha*,
 e) ravish so‘roq olmoshi oldidan: *hech qachon* kabi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tili grammatikasidagi so‘roq gaplar ingliz tili grammatikasidagi so‘roq gaplardan ancha farq qiladi va o‘zbek tili grammatikasi so‘roq gaplardan ancha murakkabroq.

Detektiv asarlarda deyarli so‘roq gaplarning hammasi qatnashadi.

Ingliz asarlarida keltirilgan so‘roq gaplar tarjima jaroyonida darak gapga aylanib ketishi yoki umuman tarjima etilmay qolishi ham mumkin.

Bunday hodisalarni Artur Konan Doylning “Sherlok Holmas haqida hikoyalar”⁵ asaridagi so‘roq gaplar misolida tahlil qilamiz:

“What will you say, dear?”, *said my wife, looking across at me. “Will you go?” “I really don’t know what to say. I have a fairly long list at present.” “Oh, Anstruther would do your work for you. You have been looking a little pale lately. I think that the change would do you good, and you are always so interested in Mr. Sherlock Holmas cases”*.

ushbu so‘roq gaplar asarning o‘zbekcha variantida tarjima qilinmagan. Lekin bu gapning tarjima qilinmaganligi asar mazmunida hech qanday uzilish holatini keltirib chiqarmagan. Ammo badiiy tomondan olib qaraydigan bo‘lsak, gap tarjima qilinganda asarning ta’sirchanligi yanada ortishi mumkin edi.

⁴ Sh.rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. T: Universitet. 2006. 210-b

⁵ Artur Konan Doyl “Sherlok holmas haqida hikoyalar” Toshkent “Yulduzcha” 1989

Asarni tarjima qilish jarayonida tarjimon faqatgina gapni soʻzma soʻz emas balki turli iboralar yoki soʻz birikmalari bilan tarjima qilishi maqsadga muvofiq boʻladi. Misol uchun :

“How on earth-”.

“My dear fellow, I know you well. I know the military neatness which characterises you. You shave every morning, and in this season you shave by the sunlight; but since your shaving is less and less complete as we get farther back on the left side, until it becomes positively slovenly as we get round the angle of the jaw, it is surely very clear that that side is less illuminated than the other. I could not imagine a man of your habits looking at himself in an equal light and being satisfied with such a result. I only quote this as a trivial example of observation and inference. Therein lies my mtier, and it is just possible that it may be of some service in the investigation which lies before us. There are one or two minor points which were brought out in the inquest, and which are worth considering.” Ushbu gapdagi **“How on earth”** iborasini tarjimon kontekstdan kelib chiqib, buni mana bunday soʻroq gapga aylantirgan:

“Darhaqiqat, buni qanday bildingiz?”.

-Aziz doʻstim, man siz bilan koʻpdan beri tanishman. Sizga xos boʻlgan harbiy intizomni yaxshi bilaman.siz har kuni ertalab soqolingizni olasiz,yilning bu faslida esa quyoshning yorugʻida olasiz; yuzingizning chap tomoni oʻng tomoniga qaraganda yomonroq qirilgan, chapga surilgan sari yomonroq, nihoyat bora-bora palapartish qirilgan. Yaqqol koʻrinib turibdiki,yuzingizning bu qismiga narigi tomonga qaraganda kamroq yorugʻ tushgan. Sizga oʻxshagan tartibli odamning hammayoqdan barobar yorugʻ tushib turganda oynaga qarab soqolini chala qirishni also tasavvur eta olmayman.” Bu yerda tarjimon mahoratiga qoyil qolsa arziydi. Bu kabi iboralar asar saviyasini yanada oshiradi.

“You cannot say what it was?” ,

“You had my note?”,

“And leave your case unfinished?”,

“We have still time to take a train to Hereford and see him tonight?”.

Ushbu keltirilgan misollar aslida oddiy darak gap. Lekin oʻzbek va ingliz tili grammatikasida soʻroq ohangi bilan aytiladigan gaplar ham mavjud⁶.

“who?”

“what?”

“why?” singari soʻroq olmoshlari ingliz asarlarida ham,oʻzbek asarlarida ham uchraydi. Bunday soʻroq gaplar koʻpincha taajjub, ajablanish maʼnolarida keladi

“And the murderer?”

“But the mystery?”

⁶ A.Bahronov, B.Shamsiyev.Hozirgi oʻzbek adabiy tili.T: Adabiyot uchqunlari.2016

“And now?”

“But his lameness?”

“You had my note?”

Ushbu misollardan ko'rinib turibdiki, bunday gaplar to'liqsiz gaplar hisoblanadi va ko'proq diologlarda ishlatiladi. Asarda ham xuddi shunday diologda so'roq ohangi bilan berilgan. Bu degani gap to'liq bo'lmasdan turib ham so'roq gap yasay olish degani emas, avval ham aytganimizdek, asar ta'sirchan chiqishi ucun muallif turli qisqartmalardan foydalanadi. Bu esa asarning saviyasini yanada oshirib yuboradi. Darhaqiqat, yozuvchi o'z asarida boshqa turli shevalarni yoki qisqartmalarni ishlatishi ehtimoldan holi emas, albatta. Lekin asarni Grammatik nuqta'iy nazardan o'rganib chiqadigan bo'lsak, yozuvchi tomonidan qilingan bir nechta xatoliklar bo'lishi mumkin. Aytaylik, yuqorida nomi tilga olingan asardagi manabu soroq gapda zamonlar moslashuviga amal qilinmagan:

“Did your father make any statement before he died?” ushbu so'roq gapda “before” bog'lovchisidan oldingi zamon uzoq o'tgan (past perfect) zamonida bo'lishi kerak edi.

Shunday qilib xulosamiz so'ngida, so'roq gaplarning ingliz va o'zbek tili grammatikasidagi o'xshash va farqli tomonlarini qisqacha tahlil qildik. bundan ko'rinib turibdiki, ingliz va o'zbek tili grammatikasidagi so'roq gaplar bir biridan tubdan farq etadi. lekin, tarjima jarayonida inglizchadan o'zbekchaga tarjima etilganda so'roq gaplarning faqat 2 yoki 3 turi qatnashadi. Bunday tahlil qilishlarning nihoyasi yo'q. Zero, yangi asar yaratilar ekan asardagi har bir detal tanqidchilar tomonidan tahlil qilinaveradi

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.M.G'aprov, R.Qosimova Ingliz tili grammatikasi Toshkent Turon-Iqbol (2017)
- 2.John Eastwood Oxford Practice Grammar Oxford University press (1999)
- 3.Raymond Murphy English Grammar in Use Cambridge University press (1994)
- 4.Betty Schramper Azar Fundamentals of English Grammar. Third edition. (2003)